



DEVELOPING AUDITING ACTIVITIES IN COMPANIES ENGAGED IN ONLINE TRADING

Ahmatova Mukhlisa Ahmat kizi

Samarkand Institute of Economics and Service

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15461490>

ARTICLE INFO

Received: 13rd May 2025

Accepted: 18th May 2025

Online: 19th May 2025

KEYWORDS

Audit activity, online trade, inventories, IAS, E-documents, digital audit, financial control, international standards.

ABSTRACT

This article explores the importance and development of audit activities in enterprises engaged in online trade. It focuses on applying International Financial Reporting Standards, especially IAS – “Inventories”, in auditing online business inventory, financial statement accuracy, and implementing digital audit technologies.

РАЗВИТИЕ АУДИТОРСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В КОМПАНИЯХ, ЗАНИМАЮЩИХСЯ ИНТЕРНЕТ-ТОРГОВЛЕЙ

Ахматова Мухлиса Ахмат кызы

Самаркандский институт экономики и сервиса

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15461490>

ARTICLE INFO

Received: 13rd May 2025

Accepted: 18th May 2025

Online: 19th May 2025

KEYWORDS

Аудиторская деятельность, онлайн-торговля, запасы, МСФО, электронные документы, цифровой аудит, финансовый контроль, международные стандарты.

ABSTRACT

В статье рассматриваются направления развития аудиторской деятельности на предприятиях, осуществляющих онлайн-торговлю. Особое внимание уделяется применению МСФО – «Запасы», достоверности финансовой отчетности и внедрению цифровых технологий аудита в условиях электронной коммерции.

ONLINE SAVDO BILAN SHUG'ULLANUVCHI KORXONALARDA AUDITORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH

Ahmatova Muxlisa Ahmat qizi

Samarqand Iqtisodiyot va Servis instituti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15461490>

ARTICLE INFO

Received: 13rd May 2025

ABSTRACT

Ushbu maqolada online savdo bilan shug'ullanuvchi



Accepted: 18th May 2025

Online: 19th May 2025

KEYWORDS

Auditorlik faoliyati, onlayn savdo, tovar-moddiy zahiralari, BHXS, elektron hujjatlar, raqamli audit, moliya nazorati, xalqaro standartlar.

korxonalarda auditorlik faoliyatining ahamiyati va uni takomillashtirish yo'llari yoritilgan. Asosan, Buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari, ayniqsa BHXS – "Tovar-moddiy zahiralari" asosida zaxiralarni baholash, moliyaviy hisobotlar ishonchliligi va raqamli audit muhitida auditorlik jarayonlarini amalga oshirish imkoniyatlari tahlil qilinadi.

Kirish.

So'nggi yillarda raqamli texnologiyalar asosida rivojlanayotgan onlayn savdo sohasi ko'plab yangi imkoniyatlarni yaratmoqda. Elektron savdoning tezkorligi, global bozorlarga chiqish imkoni, xarajatlarning kamayishi bu sohani keng joriy etilishiga olib kelmoqda. Shu bilan birga, moliyaviy hisobotlar shaffofligi, tovar-moddiy zahiralarning aniq aks ettirilishi va hisob-kitoblarning ishonchliligi auditorlik nazorati orqali ta'minlanadi.

Onlayn savdo korxonalarida auditorlik faoliyatining muhimligi ortib bormoqda, chunki real vaqt rejimida operatsiyalar amalga oshadi, hujjatlar elektron tarzda yuritiladi va raqamli tizimlar bilan integratsiyalashgan moliyaviy hisobotlar tezlik bilan shakllantiriladi. Bu esa xalqaro standartlar, xususan BHXS talablariga muvofiq auditorlik tekshiruvlarini yangicha yondashuvda olib borishni talab qiladi.

Adabiyotlar sharhi.

BHXS – "Tovar-moddiy zahiralari" standarti: Tovarlarining tan narxini hisoblash, sof sotish qiymatini aniqlash va inventarlarni baholashga doir aniq mezonlar bilan ta'minlaydi. Auditorlik tekshiruvlarida ushbu standart asosiy hujjat sifatida qo'llaniladi.

Xalqaro audit standartlari (ISA): Auditorlik faoliyatining bosqichlari, ichki nazoratni baholash va elektron hujjatlar asosida audit o'tkazish tartiblarini belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi: Onlayn savdo orqali olingan daromadlar va xarajatlarni aniqlash, soliqqa tortish tartibini asoslaydi, auditorlar uchun asosiy yuridik manbadir.

Tadqiqot metodologiyasi.

Maqola yozilishida normativ-huquqiy hujjatlar tahlili, xalqaro standartlar va mahalliy amaliyot taqqoslash metodi, shuningdek, onlayn savdo faoliyati yurituvchi kichik biznes subyektlari misolida kuzatuvlar o'tkazildi. Auditorlik faoliyatining raqamli muhitda olib borilishi BHXS talablari asosida baholandi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, onlayn savdo korxonalarining moliyaviy hisoboti va zahiralari ko'plab xatoliklarga yo'l qo'ymoqda:

❖ Tovar-moddiy zahiralarni noto'g'ri baholash: BHXS ga ko'ra, zaxiralari tan narxi yoki sof sotish qiymatining pastrog'i asosida baholanishi kerak. Aksariyat korxonalar bu mezonni noto'g'ri yoki umuman qo'llamaydi.



- ❖ Elektron hujjat aylanishi tizimida ichki nazoratning zaifligi: Ko'plab online platformalarda avtomatik hisobotlar tayyorlansa-da, ularning asosida yotgan dasturiy hisob algoritmlari auditorlik standartlariga mos emas.
- ❖ Sotilmagan zahiralarning eskirishi yoki qiymati pasayishi e'tibordan chetda qolmoqda: Bu BHXS talablari bo'yicha zararni tan olishni talab qiladi, lekin ko'pchilik korxonalarda bu amalga oshirilmaydi.
- ❖ Elektron audit usullarining cheklanganligi: Auditorlar ko'pincha klassik yondashuvdan foydalangan holda tahlil yuritadilar, bu esa raqamli operatsiyalarda kamchiliklarni aniqlashga xalaqit beradi.
- ❖ Ichki audit tizimlarining rivojlanmaganligi: Ichki nazorat, xususan zahiralarni harakatini real vaqt rejimida nazorat qilish mexanizmi aksariyat online savdo korxonalarida yo'q.

Natijada, auditorlar uchun quyidagi yo'nalishlar ustuvor bo'lishi kerak: elektron savdo tizimlarida yaratilgan moliyaviy axborotlarning ishonchligini tekshirish, BHXS talablariga mos keladigan baholash mezonlarining qo'llanilishini tahlil qilish va zaxiralarning haqiqiy qiymatini aniqlash. Bu esa faqat elektron audit, data-analitika va zamonaviy dasturiy vositalardan foydalanish orqali amalga oshiriladi.

Xulosa va takliflar.

Online savdo korxonalarida auditorlik faoliyatini samarali yo'lga qo'yish uchun xalqaro standartlarga asoslangan, zamonaviy va texnologik yondashuv muhim hisoblanadi. Auditorlik faqat hujjatlarni tekshirish emas, balki real vaqtli ma'lumotlarni tahlil qilish va zaxiralarning iqtisodiy mohiyatini aniqlashga qaratilishi zarur.

Shunga ko'ra, quyidagi takliflar beriladi:

BHXS standartining amaliyotga to'liq joriy etilishini ta'minlash uchun auditorlar uchun maxsus o'quv kurslari tashkil etilishi;

Onlayn savdo korxonalarida zamonaviy audit texnologiyalarini – raqamli izlar (digital trace), blokcheyn asosidagi inventar nazorat tizimlarini joriy etish;

Har bir korxonada ichki audit tizimini yaratish va elektron hisobotlarni real vaqt rejimida kuzatuvchi mexanizmlarni ishlab chiqish lozim.

References:

1. BHXS 2- "Tovar-moddiy zahiralalar", МХХС Фонди, 2024
2. Xalqaro audit standartlari (ISA) – IFAC, 2022
3. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi, 2023
4. Abdurashidov A. "Audit va moliyaviy nazorat asoslari", TDIU, 2022
5. Hamidov B. "Raqamli iqtisodiyotda audit texnologiyalari", 2023
6. www.audit.gov.uz – Auditorlar palatasi rasmiy portali
7. Karimov M. "Elektron savdoda zahiralarni boshqarish", Ilmiy maqolalar to'plami, 2023